

Termiz shahrida "Uch avlod uchrashuvi" hamda "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi.



Dastlab "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" ko'rik tanlovining Termiz shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Ishtirok etgan 10 nafar nuroniylarimiz orasidan g'oliblariga viloyat bosqichiga yo'llanma berildi.

Jarayon o'tkazilishi an'anaga aylangan tarix, bugun va kelajakni o'zida mujassam etgan "Uch avlod uchrashuvi" bilan davom etdi. Yoshi ulug' otaxon va onaxonlarimiz hayoti va mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi, yoshlik davridagi o'ziga xos qiyinchiliklar, mehnat pallasidagi mashaqqatlar, nihoyat nuroniylik paytida ko'rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqida o'z dil so'zlarini, samimiy fikrlarini bildirishdi. Bir guruh faollar taqdirlanishdi.